



## XURSHID DAVRON NAZMIDA SHE'RIY SAN'ATLAR JILOSI

*Ismoilova Sevinch Ismoil qizi*

*Termiz davlat universiteti*

+998935176605

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davronning badiy mahorati bilan bog'liq masalalar ilmiy o'r ganilgan. Shoир she'rlarida bir vaqtida bir necha badiiy san'atlardan foydalanish va ularni badiiy-estetik jihatdan tahlil qilish ham ko'rsatib o'tilgan. Mahorathi shoirning badiiy tasvir vositalaridan ham keng ko'lamda foydalangani ham yoritilgan.

**Kalit so'zlar;** Metafora ,tashbih ,jonlantirish ,nido (apostrofa), ta'did, intoq, iltizom, mukarrar.

Sharq she'riyatida azaldan she'rning qonun-qoidalari shoir mahorati sirlari, badiiy san'atlар tasvir va ifoda vositalari hamda ularni qo'llash "ilmi sanoye" yoki "balog'at ilmi"da o'r ganilgan bo'lib unda she'riy san'atning qimmati baytda yaratilgan badiiy lavhalar, timsollarning yangiligi, betakrorligi bilan belgilangan.

"Badiiy san'atlар sharq mumtoz adabiyotining ham o'ziga xosligi, milliyligi, latofati, rango-rangligi va ta'sirchanligini ifodalovchi tasvir vositasidir."

[1:354]

Bugungi zamonaviy o'zbek adabiyotida barakali ijod qilayotgan serqirra istedod egalaridan biri Xurshid Davrondir. U uchun she'r yozish uning ichki ehtiyojiga aylangan.

Erk guli bor derlar, buvijon,  
Shul gul haqida menga so'y lab ber,  
O , bolajon , bu sirni bilsang,  
G'am kelar – u diling qisadi.

[2:35]

Bu misralarda nido san'ati **bolajon** , **buvijon** so'zlarida aks etgan.

Erib ketar xira tumanlar,  
Kapalakdek uyg'onar yalpiz  
Osmonda daryo bo'lib tuyular  
O'tlar uzra chopqillaydi ko'z  
Va tushlarga kirar adir bu oqshom



Ko’rinib turibdiki , she’rda o’xshatish , metafora va jonlantirish san’atlaridan foydalanilgan va bu san’atlar bir-biriga bog’lanib kelgan. Shoir ular vositasida aloqasiz tushuncha , hodisalarni uzviy birlashtirishga erishadi.

Shoir ijodida o’zbek adabiyoti taraqqiyotida yuksak o’rinda turgan shoir va adib Oybekka bag’ishlangan “Oybek” she’ri ham alohida mavqega ega. Ikkita to’rtlikdan iborat ikkinchi qismda dastlab o’tmishda shoirlar she’rni “qush tili” deyishgani eslatiladi. So’ngra Oybek she’rni “yulduz kiprigi”deya ta’riflagani ta’kidlab o’tiladi va “Oybek O’zbekistonning kiprigi edi,” –deyiladi, ya’ni O’zbekiston ko’zga , Oybek uning kiprigiga o’xshatiladi.

She’r : “So’nggi dam boshida so’narkan osmon,

Shoir ko’zlarini berdi osmonga “ - deb tugallanadi. She’rda Oybekning ko’zlari beg’ubor , katta osmonga o’xshatiladi. Bu chiroyli tashbeh Oybekning jismiga ham, hayot yo’liga ham juda mos keladi.

Bizlar qaysi o’g’ilmiz,

Aytgin, zamondosh o’rtoq,

To’g’ichmi, o’rtanchami,

Yo kenjami – o’ylab boq??

Bu misralarda esa ta’did san’ati to’ng’ich , o’rtancha , kenja so’zları vositasida yuzaga kelgan. Shu o’rinda muallifning maqsadi ayon bo’ladi. U ko’hna rivoyatlarni naql qilish orqali mustamlaka bo’lib yashashga ko’nikkan kishilar qalbida erk , ozodlikka intilish istagini uyg’otmoqchi bo’ladi.

“Xurshid Davron she’rlaridagi obrazlar, tashbeh, metaforalar voqelikning o’zidan olingan sun’iy tarzda to’qilmagan. Ularning aksariyati o’tmish bilan bog’liq .“

[3:15]

Bir chetida bahor-u,

Bir chetida saraton.

Bir yog’ida tun cho’kar,

Bir yog’ida balqar tong.

[4:8]

Ushbu satrlarda takrorlanib kelgan “Bir” so’zi iltizom san’atini yuzaga keltirgan.

Devor dedi : - Ortda men,

Demak, ey xalq , olg’a bos.

Mazkur misralarda esa mahoratli shoir intoq san’- atidan foydalangan , ya’ni jonsiz narsa devorning tilga kirishi shu san’atni yuzaga keltirgan.



O'layotgan otning qorachig'ida  
Cheksiz-cheksiz yam-yashil qirlar  
[5:23]

Quyidagi satrlarda **cheksiz** so'zining shu holatda takror kelishida **mukarrar** san'ati yuzaga kelgan.

Xulosa qilib aytganda, Xurshid Davron o'zining she'riyatida faqatgina o'xshatish asosidagi san'atlar bilan cheklanib qolmasdan , jonlantirish , takroriy san'atlardan ham foydalanadi, bu esa o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri bo'lган X.Davronning yuksak badiiy mahoratga ega ekanligidan va tahsinga loyiq she'rlari bilan xalq qalbiga kirib borgan ijodkor ekanligidan darak beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. T.Boboyev.Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent O'zbekiston – B-354
  2. X.Davron .Bahordan bir kun oldin . She'rlar, rivoyat ,tarjimalar.Toshkent:Sharq 1997.B-35
  3. Abdulla Ulug'ov . Qalb qandili: Adabiy-tanqidiy ocherk.Toshkent-Akademnashr 2013.B-15
  4. X.Davron. Vatan haqidagi yetti rivoyat .Bobolar mozori – 1989. B-8
  5. X.Davron .Bolalikning ovozi .Toshkent.G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san 'at nashriyoti . 1986.B-23.
- .